

Jo'rayeva Lola Tolibjonovna

Andijon davlat chet tillari instituti

E-mail: lolajorayeva265@gmail.com

UDK 811.111'36(075.8)

YOSHLAR MATBUOTIDA MAXSUS JARGONLARGA OID TERMINLAR (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA).

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar matbuotidagi maxsus jargonlar va ularning ingliz hamda o'zbek tillaridagi ifodalanishi tahlil qilinadi. Maqolada jargonlarning shakllanish manbalari, ularning semantik xususiyatlari va funksional vazifalari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi yoshlar matbuotida keng qo'llaniladigan maxsus terminlar va ularning tilga kirib kelish jarayoni o'rganiladi. Yoshlar o'rtasidagi til o'zgarishlari matbuot tiliga qanday ta'sir ko'rsatishi, yangi jargon va terminlarning tilshunoslik nuqtai nazaridan qaysi mezonlarga asosan shakllanishi haqida ilmiy asoslangan mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar matbuoti, maxsus jargon, terminologiya, semantik tahlil, chog'ishtirma tadqiqot, til o'zgarishlari, ingliz va o'zbek tillari.

Lola Tolibjonovna Jurayeva

Andijan State Institute of Foreign Languages

SPECIAL JARGON TERMS IN YOUTH MEDIA (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Abstract. This article analyzes the specific jargon used in youth media and their representation in English and Uzbek languages. The formation sources of jargons, their semantic characteristics, and functional roles are thoroughly examined. The article also explores widely used specific terms in English and Uzbek youth media and the process of their integration into the language. Scientifically grounded opinions are presented regarding how linguistic changes

among youth influence the language of media and the criteria based on which new jargon and terminology are formed from a linguistic perspective.

Keywords: youth media, specific jargon, terminology, semantic analysis, comparative research, language changes, English and Uzbek languages.

Джураева Лола Толибджонова

Андижанский государственный институт иностранных языков

СПЕЦИАЛЬНЫЕ ЖАРГОННЫЕ ТЕРМИНЫ В МОЛОДЁЖНОЙ ПРЕССЕ (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация. В данной статье анализируются специальные жаргонные выражения, используемые в молодёжной прессе, и их выражение на английском и узбекском языках. Исследуются источники формирования жаргонов, их семантические особенности и функциональные задачи. Также изучается процесс вхождения специальных терминов, широко используемых в молодёжной прессе на английском и узбекском языках, в общий язык. Приводятся научно обоснованные рассуждения о влиянии языковых изменений среди молодёжи на язык прессы, а также о критериях формирования новых жаргонов и терминов с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: молодёжная пресса, специальный жаргон, терминология, семантический анализ, сравнительное исследование, языковые изменения, английский и узбекский языки.

Kirish.

Har bir davrda til jamiyatning ayniqsa yosh avlodning ijtimoiy, madaniy va texnologik muhitiga mos ravishda rivojlanib boradi.[4.7.] Zamonaviy tarmoqlar va onlayn nashrlar yoshlar nutqiga xos bo'lgan maxsus jargonlarning shakllanishi va keng tarqalishida muhim o'rin tutadi. Bunday jargonlar yoshlar o'rtasidagi o'zaro muloqotni tezlashtirish, ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansublikni belgilash,

shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bilan yangi tushunchalarni ifodalash vazifalarini bajaradi. Jargonlar har bir tilning o'z madaniy va lingvistik xususiyatlariga ko'ra shakllanadi. Masalan, ingliz tilidagi yoshlar matbuotidagi "*FOMO*" (fear of missing out), "*ghosting*", "*savage*", "*stan*" kabi atamalar yoshlar o'rtasida keng qo'llanilayotgan bo'lsa, o'zbek tilida ham "*trendda*", "*layk bosish*", "*hayp bo'lish*", "*post qilish*" kabi jargon so'zlar keng tarqalgan. Ushbu so'zlar ko'pincha ingliz tilidan bevosita o'zlashtiriladi yoki muayyan til va madaniyatga moslashtiriladi.

Ushbu maqolada yoshlar matbuotidagi maxsus jargonlarning ingliz va o'zbek tillarida qanday shakllanganligi, ularning semantik, morfologik va pragmatik xususiyatlari hamda qo'llanilish sohalari tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar o'rtasidagi til o'zgarishlari va uning matbuot tiliga ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi jargonlarni chog'ishtirma tahlil qilish orqali, ularning umumiy va farqli jihatlari, kelib chiqish manbalari va lingvistik xususiyatlari aniqlanadi.

Yoshlar matbuoti va jargon tilshunoslikning yangi tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiolingvistika va medialingvistika nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Shu bois ushbu tadqiqot orqali yoshlar nutqidagi maxsus jargonlarning matbuot orqali qanchalik tez o'zgarishi, qanday omillar ta'sirida rivojlanishi hamda ularning zamonaviy tilning umumiy tizimiga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili.

Yoshlar matbuotidagi maxsus jargonlar va terminologik birliklarning shakllanishi, rivojlanishi va qo'llanilish xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikning bir qancha yo'nalishlari, jumladan, sotsiolingvistika, medialingvistika, pragmatik lingvistika va kognitiv tilshunoslik bilan bog'liq tadqiqotlarni talab etadi. Shu bois, ushbu mavzuga oid ilmiy manbalarni tahlil qilishda turli yo'nalishdagi tadqiqotlar o'rganib chiqildi.

Jargonlarning ijtimoiy va lingvistik xususiyatlari bo'yicha Sh.Rahmatullayev (2006), A.Nurmonov (2001) kabi o'zbek olimlarining

tadqiqotlarida yoshlar tilining dinamik xususiyatlari, uning media muhitdagi rivojlanishi, yangi jargonlarning ommalashuv jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. [5.45.; 6.80.]

Shuningdek, Algeo, John (ed.).(1991.), Adams, Valerie.(1973), Bauer, Laurie.(1983), Elisa Mattiello (2017) kabi g'arb tilshunos olimlarining asarlarida internet tilining yoshlar nutqiga ta'siri, maxsus terminlar va neologizmlarning paydo bo'lish mexanizmi, ularning semantik o'zgarishlari haqida to'liq tahlillar beriladi. [1.3.; 2.14.; 3.8.]

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlar matbuotidagi maxsus jargonlarning rivojlanish dinamikasi, semantik o'zgarishlari va mediamuhitdagi qo'llanishi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, bu jarayonning ingliz va o'zbek tillaridagi qiyosiy-tahliliy tadqiqi hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga va yoshlar jargonining ikki tildagi mediamatnlardagi o'rnini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda yoshlar matbuotidagi maxsus jargonlarning ingliz va o'zbek tillaridagi shakllanishi, qo'llanilishi va semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Birinchi navbatda, chog'ishtirma-tahliliy metod qo'llanildi. Ushbu metod orqali ingliz va o'zbek tillaridagi yoshlar matbuotida uchraydigan maxsus jargonlar va ularning ma'no tarkibi, qo'llanish doirasi va grammatik xususiyatlari solishtirildi. Chog'ishtirma tahlil jarayonida ikki tildagi jargon so'zlarning shakllanish manbalari, ularning etimologiyasi va tildagi faoliyat darajasi o'rganildi.

Ikkinchidan, kontent-tahlil metodi asosida yoshlar matbuotidan olingan matnlar to'plab, ularda ishlatilgan maxsus jargon va terminlar saralandi. Bu jarayonda internetdagi yoshlarga mo'ljallangan maqolalar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar va onlayn nashrlardagi materiallar tahlil qilindi. Kontent-tahlil yordamida yoshlar tilidagi jargonlardan foydalanish tendensiyalari va ularning ommalashi dinamikasi aniqlandi.

Shuningdek, semantik va struktur usuli orqali yoshlar jargonlarining ma'no jihatdan shakllanish jarayonlari va ularning lug'at tizimida tutgan o'rni o'rganildi. Jargon so'zlarning lug'atdagi mavjud ma'nolarida qanday farq qilishi va ularning konteksga moslashish darajasi tahlil qilindi.

Bundan tashqari, sotsiololingvistik tahlil metodi yoshlar jargonlarining ijtimoiy kontekstdagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qildi. Bu metod orqali jargonlarning ijtimoiy guruhlar o'rtasida qanday tarqalishi, ularning matbuot tiliga ta'siri va rasmiy til bilan munosabati o'rganildi.

Qo'llanilgan metodlar orqali yoshlar matbuotidagi maxsus jargonlarning tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlili amalga oshirildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari yoshlar nutqidagi dinamik o'zgarishlarni tushunish, medialingvistika va sotsiolingvistikadagi yangi tendensiyalarni aniqlashda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Natijalar va ularning tahlili.

Yoshlar matbuotida ishlatiladigan maxsus jargonlar til tizimidagi innovatsion jarayonlarning yaqqol ifodasi bo'lib, ular jamiyatning madaniy, ijtimoiy va texnologik o'zgarishlarini aks ettiradi. Bunday jargonlar yoshlarning o'zaro kommunikatsiyani osonlashtirish bilan birga, ularning ijtimoiy guruhlariga mansubligini ham belgilaydi. Masalan, ingliz tilida keng tarqalgan "*Live Stream*" atamasi (real vaqtda video translatsiya qilish jarayonini anglatadi. Bu internet va ijtimoiy media rivojlanishi bilan paydo bo'lgan jargon bo'lib, hozirgi kunda keng qo'llanilishi sababli neologizm deb hisoblanadi. O'zbek tilida esa unga funksional jihatdan o'shxash "*hayp qilish*" (mashhurlik qozonish, ko'pchilikning e'tiboriga tushish) kabi jargonlar mavjud. Ushbu atamalar nafaqat shaxslarning maqomini belgilashga xizmat qiladi, balki yoshlar nutqining stilistik xususiyatlarini ham namoyon etadi.

Yoshlar nutqida qo'llaniladigan jargonlarning shakllanishida asosiy omillardan biri ularning qisqa va ixcham bo'lishidir. Hozirgi kunda zamonaviy ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi natijasida yoshlar nutqida xorijiy til elementlari asosida shakllangan neologizmlar

va jargon birliklar tobora ko'proq uchramoqda. Jumladan, ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan "*master class*" atamasi o'zbek tilidagi rasmiy va norasmiy diskurslarda keng qo'llanilmoqda. Bu ibora an'anaviy "*ustozlik saboqlari*" yoki "*tajriba asosidagi mashg'ulot*" tushunchalari o'rnini bosmoqda. Ko'pincha, bu atama ta'sirli reklama va marketing matnlarida mutaxassis tomonidan o'tiladigan maxsus va amaliy darslarga nisbatan ishlatiladi. Shu bilan birga, "*start beramiz*" iborasi ham original o'zbekcha "*boshlaymiz*" yoki "*yo'lga qo'yamiz*" kabi ifodalar o'rnini egallab borayotgan norasmiy uslubdagi iboradir. Bu so'z birikmasi sintaktik jihatdan o'zbek tiliga xos bo'lsa-da, leksik jihatdan ingliz tilining "*start*" so'zidan bevosita olingan va ayni paytda yangi leksik birlik sifatida faol iste'molda. Yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan "*post*" atamasi ham bugungi kunda o'zbek tilida "*xabar*", "*e'lon*" yoki "*maqola*" o'rnida qo'llanilmoqda. Bu so'z asosan raqamli axborot muhitida yozma kontentga nisbatan ishlatiladi va zamonaviy yoshlar orasida tezkor muloqot vositasi sifatida keng tarqalgan. Yuqoridagi birliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, tilshunoslik nuqtayi nazaridan ularning barchasi zamonaviy lingvistik o'zgarishlarning yorqin namunasi bo'lib, o'zbek tilidagi leksik yangilanishlar va global madaniy ta'sirlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi.

Bundan tashqari, yuqoridagi so'zlarni semantik jihatdan tahlil qilinganda, ularning ko'pchiligi asosiy leksik ma'nosidan chetga chiqib, ikkilamchi, ko'chma, konnotativ ma'nolar kasb etgani kuzatiladi. Masalan, "*post*" so'zi aslida ingliz tilida "*joylashtirish*", "*xabar yuborish*" degan ma'noni bildirsa-da, hozirgi o'zbek tilida u "*ijtimoiy tarmoqdagi e'lon*" yoki "*axborotli kontent*" ma'nosida ishlatilmoqda. Bu esa so'zning semantik kengayishini bildiradi. Xuddi shuningdek, "*start beramiz*" iborasi ham "*boshlash*" semasini anglatrsa-da, undagi "*start*" komponenti o'zbekcha "*beramiz*" bilan birikib, metaforik ko'rinishga ega bo'lgan yangi semantik birlikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, "*master class*" iborasi semantik jihatdan yuqori darajadagi tajriba almashish, malaka oshirish kabi ma'nolarni o'z ichiga olgan bo'lib, u o'zbek tilidagi "*o'quv mashg'uloti*" so'z birikmasidan farqli ravishda, yanada eksklyuziv, ixtisoslashgan tushunchani

anglatadi. Umuman olganda, jargonlar semantik nuqtayi nazardan ko'p hollarda mavjud so'zlarning yangi ijtimoiy kontekstda qayta ma'no kasb etishi yoki metaforik tarzda ishlatilishi orqali lug'aviy boylikni yangilab boradi.[6.80.] Bu esa zamonaviy til taraqqiyotida ularning ahamiyatini oshiradi.

Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida jargonlarning tarqalishiga texnologik omillar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globalizatsiya natijasida ko'plab inglizcha jargonlar o'zbek tiliga ham o'zlashmoqda. Masalan, "*streaming* (onlayn translatsiya qilish)" atamasi o'zbek tilida "*strim qilish*" yoki "*jonli efirga chiqish*" tarzida qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar matbuotida ishlatiladigan jargonlar ingliz va o'zbek tillarida turlicha xususiyat kasb etishi bilan birga, umumiy tendensiyalarga ham ega. Ingliz tilidagi jargonlar global madaniyat va texnologik taraqqiyot bilan bog'liq holda shakllansa, o'zbek tilidagi jargonlar ko'proq mahalliy ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirida rivojlanadi. Shu bilan birga, har ikkala til uchun ham internet va ijtimoiy tarmoqlar asosiy omil bo'lib, yangi jargonlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishiga sabab bo'layotgani kuzatilmoqda.

Ushbu tendensiyalar tilshunoslik, sotsiolingvistika, media lingvistika hamda tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ularni chuqur o'rganish yoshlar tilining rivojlanish xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Kelajak tadqiqotlar ushbu jarayonlarning yanada batafsil leksik-semantik va sotsiolingvistik tahlilini amalga oshirishga yo'naltirilishi lozim.

Umuman olganda, yoshlar matbuotida qo'llanilayotgan jargonlar globalizatsiya, internet texnologiyalarining rivojlanishi va madaniy ta'sirlar natijasida dinamik tarzda shakllanmoqda. Kelgusida ushbu jarayonlarni chuqurroq o'rganish, ayniqsa, jargonlarning ommalashish omillari, ularning ijtimoiy va psixologingvistik ta'siri, matbuot uslubiga ta'siri kabi jihatlarni tahlil qilish muhim ilmiy yo'nalish sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, yoshlar matbuotida maxsus jargonlarning qo'llanilishi til tizimidagi dinamik o'zgarishlarning muhim ifodasi bo'lib, ularning shakllanishi ijtimoiy, madaniy va kommunikativ omillar bilan bevosita bog'liqdir. Ingliz va o'zbek tillarida bunday jargonlarning rivojlanishi, asosan, lingvistik innovatsiyalar, globalizatsiya va ommaviy axborot vositalarining ta'siri natijasida shakllanadi.

Nazariy jihatdan, jargonlar leksik-semantik, morfologik va pragmatik mezonlar asosida o'rganilib, ularning ijtimoiy ijtimoiy guruhlar orasidagi kommunikativ funksiyalari tahlil qilindi. Jargon birliklarining shakllanishi va ularning matbuoti tilida qo'llanilishi yoshlar auditoriyasining til me'yorlariga bo'lgan munosabati bilan chambarchas bog'liq ekani aniqlandi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarida jargonlarning o'ziga xos taraqqiyot yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularning lingvistik xususiyatlari va funksional vazifalari ham farqlanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida ingliz va o'zbek tilidagi maxsus jargonlarning paydo bo'lishi, tarqalish jarayonlari va matbuot tiliga integratsiyasi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar matbuotida jargonlarning qo'llanilishi axborotni tezkor va ta'sirchan ifodalash zaruriyatidan kelib chiqib shakllanadi. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari hamda madaniy ta'sir muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar matbuotida maxsus jargonlarning qo'llanilishi zamonaviy lingvistik o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon globalizatsiya, kommunikativ ehtiyojlar va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanib boradi. Ushbu mavzu bo'yicha kelgusidagi tadqiqotlar jargonlarning til tizimidagi o'рни, ularning ommaviy axborot vositalari orqali kengayishi hamda yoshlarning til me'yorlariga ta'siri kabi masalalarni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Algeo J. Fifty years among the new words: A dictionary of neologisms. – Cambridge: Cambridge University Press. 1991, – P.3.
2. Adams V. An introduction to Modern English word-formation. – London: Longman. 1973, – P.14.
3. Bauer L. English word-formation. – Cambridge: Cambridge University Press. 1983, – P.8.
4. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996, – Б.7.
5. Rahmatullayev. Sh.Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: “Universitet” 2006, – 476b.
6. Нурмонов, А., Йўлдошев, Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: “Шарқ” НМАК Бош таҳририяти. 2001, – 162b.